
“XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobati” nomli monografiya nashr etildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan professor S.B.Shadmanova mas’ul muharrirligi ostida “XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobati” nomli monografiya nashr etildi.



Monografiyada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobatiga doir manbalar,

aholiga tibbiy yordam ko’rsatishdagi an’anaviylik va o’zgarishlar, yevropacha ilmiy tibbiyotga mahalliy aholining munosabati, uni qabul qilish yoki qilmaslik masalalari va buning sabablari tadqiq etilgan. Shuningdek, yevropacha tibbiyot vakillarining xalq tabobatiga munosabati ko’rsatib berilgan. Xususiy shifoxonalar va ularning faoliyatiga doir masalalar, xotin-qizlarga tibbiy yordam ko’rsatishning o’ziga xos xususiyatlari va bu yo’lda xizmat qilgan shifokorlar faoliyati yoritilgan. Turli kasalliklar bo’yicha ish olib borgan tibbiyot xodimlari va tibbiy muassasalar faoliyati, turli kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillar, ularni davolash usullari va samaradorligi, bu boradagi muammolar tahlil etilgan. Asar tarixchilar va keng kitobxonlar ommasiga tavsiya etiladi.